

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

N. PARDABEKOVA

**AGRAR MUNOSABATLAR VA
AGROBIZNES**

TOSHKENT - 2006

Mazkur ko'rgazmali qo'llanmada, avvalo, agrar sektorining o'ziga xos xususiyatlari va u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tahlil qilib, keyin e'tibor yer rentasiga qaratiladi. Agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning tarkibi va vazifalarida ham to'xtalib o'tiladi. Tahlilning oxirida agrobiznes va uning turlari, O'zbekistonda agrar islohotlar va ularni chuqurlashtirishning asosiyo yo'nalishlari bayon etiladi. Takrorlash va o'zini tekshirib ko'rish uchun asosiy tushunchalar, testlar va masalalar ham berilgan.

Taqrizchilar:

1. U.X.Nigmadjanov – TIMI prorektori, "Iqtisodiy nazariya asoslari" kafedrasi mudiri, i.f.d.
2. M.Isamuxamedova - ToshDAUning "Iqtisodiy nazariya va axborot texnologiyalari asoslari" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Uslubiy qo'llanma "Iqtisodiy nazariya va axborot texnologiyalari asoslari" kafedrasi majlisida, "Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyoti va ularni boshqarish" fakulteti o'quv-uslubiy komissiyasining majlisida hamda universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2006 yil 1-sonli qarori bilan ma'qullangan.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri - bu bozor munosabatlariiga asoslangan agrar ishlab chiqarishni rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy negizini shakllantirish, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish, faol tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishdir. Bu esa qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga, qishloqda kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga, mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Barcha tarmoqlar o'rtasida qishloq xo'jaligi iqtisodiy munosabatlarda boshqalardan farq qiluvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun iqtisodiyot nazariyasida bu tarmoqdagi iqtisodiy munosabatlar alohida o'rganiladi.

Mazkur qo'llanmada, avvalo, agrar sektorining o'ziga xos xususiyatlari va u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tahlil qilib, keyin e'tibor yer rentasiga qaratiladi. Agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning tarkibi va vazifalarida ham to'xtalib o'tiladi. Tahlilning oxirida agrobiznes va uning turlari, O'zbekistonda agrar islohotlar va ularni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari bayon etiladi. Asosiy matndan so'ng esda saqlash va o'zini tekshirib ko'rish uchun asosiy tushuncha, iboralar hamda ularning tariflari berilgan. Asosiy diqqat-e'tiborni bir yerda jamlash uchun test savollari, o'rganish faolligini rag'batlantirish maqsadida esa masalalar keltirilgan.

AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES

1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning xususiyatlari

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalişlaridan biri - bu bozor munosabatlariiga asoslangan agrar ishlab chiqarishni rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy negizini shakllantirish, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish, faol tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishdir. Bu esa qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga, qishloqda kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga, mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa xom ashyyoga bo'lган ehtiyojini to'laroq qondirishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda agrar sektor muhim rol o'ynaydi. YaIM tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi 25 %ni tashkil etdi. Agrar sektor oxirgi yillar davomida barqaror sur'atlarda rivojlanib kelmoqda. Barcha mulk shakllarida yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarning umumiy hajmi 5395,5 mlrd so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 % o'sish taminlandi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Yillar					
	2000	2001	2002	2003	2004	2005
Paxta xom ashysi, ming t.	3002	3265	3122,4	2803,3	3536,8	3749,0
Don, ming t.	3929	4072	5792,6	6319,2	6000,8	6540,9
Kartoshka, ming t.	734,1	744	777,2	834,4	895,7	924,2
Sabzavot, ming t.	2644	2778	2935,6	3301,4	3336,1	3517,5
Mevalar, ming t.	791	801	842,9	765,8	851,7	949,3
Uzum, ming t.	624,2	573	516,4	401,5	589,1	641,6
Poliz mahsulotlari, ming t.	451,4	466	479,1	587,3	572,5	615,3
Go'sht (tirik vaznda), ming t.	842	854	865	935,7	998,3	1060,4
Sut, ming t.	3633	3665	3721,3	4031,1	4280,5	4554,7
Tuxum, mln dona	1254	1288	1368,9	1632,4	1860,3	1966,4

13. Quyidagilarning qaysi biri agrobiznesning asosiy shakli hisoblanadi?

- a) Fermer xo'jaligi
- b) Konserva zavodi
- c) Agrofirma
- d) Agrosanoat kombinatlari
- e) Yuqoridagilarning barchasi

MASALALAR

1. Differensial renta Ining hosil bo'lishi jadvalini to'ldiring.

Yer sifati	Yer miqdori, ga	Yalpi hosil, s	Umumiy xarajatlar, ming so'm	1s hisobidan o'rtacha xarajatlar, ming so'm	1s mahsulotning bozor narxi, ming so'm	1s mahsulot uchun differential renta I, ming so'm	1 ga uchun hisoblangan differential renta I, ming so'm
O'ta yomon	1	15	120				
Yomon	1	18	120				
O'rta	1	20	120				
Yaxshi	1	22	120				
Juda yaxshi	1	25	120				

2. Differensial renta IIning hosil bo'lishi jadvalini to'ldiring.

Sifati bir uchastkalari	Yer miqdori, ga	Yerga boshlang'ich sarflar, ming so'm	Yerga qo'shimcha sarflar, ming so'm	Hosildorlik, s/ga	Yalpi hosil, s	Umumiy xarajatlar, ming so'm	1s. mahsulotning xarajati, ming so'm	1s. mahsulotning bozor narxi, ming so'm	Umumiy differential renta II, ming so'm	1 ga uchun hisoblangan differential renta II, ming so'm
A	8	800	-	20						
B	6	600	200	30						
B	5	500	300	40						

Yerning hosil berish qobiliyatiga tuproq unumdorligi deyiladi. U tabiiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. Uzoq yillar davomida kishilarning hech qanday aralashuvlari, tabiiy o'zgarishlar natijasida yerning ustki qatlamida o'simlik "oziqlanishi" mumkin bo'lgan turli moddalarning vujudga kelishi yerning tabiiy unumdorligi deyiladi. Agar tuproq unumdorligi kishilarning tabiatga ta'siri natijasida, ya'nı tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash sun'iy yo'l bilan amalga oshirilsa, bu iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi.

Agrar ishlab chiqarishning asosiy xususiyatlari

Ko'pchilik ishlab chiqarish vositalari (chorva mollari, ko'p yillik mevali daraxtlar, urug'lik va h.k.) tarmoqning o'zida vujudga keltirilib, yana ishlab chiqarish jarayoniga kiritiladi.

Yerda ishlab chiqarish jarayoni bevosita tirik mavjudotlar: yer, o'simlik, chorva mollari bilan bog'liq bo'ladi va tabiiy qonunlar iqtisodiy qonunlar bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Ishlab chiqarish jarayoni uzoqroq muddatni tashkil qilganligi sababli aylanma kapitalning ko'pgina qismi hali tugallanmagan ishlab chiqarish shaklida bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mavsumiy xarakterga ega. Bu tarmoqdagi mehnat vositalaridan foydalanish davrini ham cheklaydi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mavsumiyligi sababli aylanma kapital va mablag'lar sarfi hamda mahsulot sotishdan olinadigan pul tushumlari yil davomida bir me'yorda bormaydi.

Qishloq xo'jalik ekinlari o'sishining vegetatsiya davri va tabiiy omillari ta'sirida ishlab chiqarish vaqtini va ish davri o'rtaida katta farq mavjud bo'ladi.

2. Yer rentasi darajasini belgilab beruvchi asosiy omilni aniqlang

- a) Yerga bo'lgan talab
- b) Shu yerda yetishtiriladigan mahsulot bahosi
- c) Yerning unumdorligi
- d) Qo'llaniladigan boshqa resurslar bahosi
- e) Yuqoridagilarning barchasi.

3. Yerni iqtisodiy resurslarning boshqa turlari (kapital, ishchi kuchi, tadbirkorlik layoqati) dan farqlovchi asosiy omil nima?

- a) Miqdorning nisbatan cheklanganligi
- b) Tabiat mahsuli ekanligi
- c) Miqdori doimiyligi (qayd qilinganligi)
- d) Bahoga ega emasligi
- e) Yuqoridagilarning barchasi.

4. Agrar munosabatlarning xususiyatlarini nima belgilab beradi?

- a) Yerning asosiy mehnat vositasi va predmeti hisoblanishi
- b) Iqtisodiy qonunlarning tabiat qonunlari bilan bog'lanib ketishi
- c) Ishlab chiqarish vaqt bilan ish davri o'rtaida farqning nisbatan kattaligi
- d) Ishlab chiqarishning mavsumiy xarakterda bo'lishi
- e) Yuqoridagilarning barchasi.

5. Yer uchastkalarining tabiiy unumdorligi va joylashgan joyidagi farqlaridan kelib chiqadigan renta qanday nom bilan ataladi?

- a) Absolyut renta
- b) Differensial renta I
- c) Differensial renta II
- d) Monopol renta
- e) Yuqoridagi barcha nom bilan.

6. Quyidagi yer uchastkalarining qaysi birida differensial renta hosil bo'lmaydi?

- a) Unumdorligi juda yuqori
- b) Unumdorligi yuqori
- c) Unumdorligi o'rtacha
- d) Unumdorligi past
- e) Yuqoridagilarning barchasi.

7. Yerdan intensiv foydalanish, ya'nı ularning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan renta qanday nom bilan ataladi?

- a) Absolyut renta
- b) Differensial renta I
- c) Differensial renta II
- d) Monopol renta
- e) To'g'ri javob yo'q

8. Yerga bo'lgan xususiy mulkchilik, ularning unumdorligidagi farqlardan qat'iy nazar yer egalariga qanday rentani olish imkonini beradi?

- a) Monopol renta
- b) Differensial renta I
- c) Differensial renta II
- d) Absolyut renta
- e) Yuqoridagilarning barchasi.

9. Yerning tabiiy sharoitida noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish imkonini berganda qanday renta hosil bo'ladi?

- a) Absolyut renta
- b) Differensial renta I
- c) Differensial renta II
- d) Monopol renta
- e) Yuqoridagilarning barchasi.

10. Differensial renta qaysi sohalarda hosil bo'ladi?

- a) Qishloq xo'jaligida
- b) Qurilishda
- c) Undirma sanoatda
- d) Qazib oluvchi sanoatda
- e) Yuqoridagilarning barchasida.

11. Quyidagi omillardan qaysi biri yer bahosining o'sib ketishiga olib keladi?

- a) Renta miqdorining o'sishi
- b) Ssuda foizi normasining pasayishi
- c) Inflyatsiyaning kuchayishi
- d) Noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yerga bo'lgan talabning o'sishi
- e) Yuqoridagilarning barchasi.

12. Agrosanoat integratsiyasi nima?

- a) Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni qayta ishslash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy tarmoqlari majmuasi
- b) Ishlab chiqarishning to'planishi va kapitalning markazlashishi
- c) Ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi
- d) Qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotini iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning kuchayishi hamda ularning uzviy birikib borish jarayoni
- e) To'g'ri javob yo'q.

Oxirgi besh yilda ilk marotaba paxtadan eng ko'p 3,5 mln tonna hosil yetishtirildi. Bunga qulay ob-havo sharoitlari, ekin maydonlarining ko'payishi, agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, hosildorlikning oshganligi hamda fermer xo'jaliklarida paxta yetishtirishning ortganligi natijasida erishildi. Joriy yilda o'tgan yilga nisbatan don mahsulotlari 532,1 ming t., kartoshka 28,5 ming t., sabzavotlar 181,4 ming t., poliz mahsulotlari 42,8 ming t., mevalar 97,6 ming t., uzum 52,5 ming tonnaga ko'paydi. Chorvachilikda ham o'sish tendensiysi kuzatilmoqda.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tarmoqlari uchun xom ashyo ishlab chiqariladi. Aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar bozorini to'ldirish uchun qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish darkor. Boshqa sohalar kabi qishloq xo'jaligida ham takror ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida muayyan iqtisodiy aloqa va munosabatlar sodir bo'ladi.

Agrar sektorda iqtisodiy faoliyat jarayonida yuz beradigan barcha munosabatlar eng asosiy omil bo'lgan yer bilan bog'liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan unumli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar **agrар munosabatlari** deyiladi. Bu munosabatlar ob'ekti yer, sub'ekti esa yer egalari, xo'jalik yurituvchi va mehnat qiluvchilar hisoblanadi. Agrar munosabatlarining xususiyatlari, birinchi navbatda, yerga bo'lgan mulkchilik bilan bog'liqdir. Bizning mamlakatimizda yer davlat mulki bo'lib, u uzoq muddatga foydalanishga berilmoqda.

Yer maxsus resurs. U boshqa omillardan tubdan farq qiladi.

Tengi yo'q ishlab chiqarish vositasi ekanligi tufayli uni boshqa biror narsa bilan almashtirib bo'lmaydi.

Yer miqdori cheklangan, shuning uchun yer taklifi noelastik hisoblanadi. Yerni xohlagan sharoitda takror ishlab chiqarish mumkin emas.

Yerning yana bir muhim xususiyati uning ko'chmasligidir. Yer uchastkalarini bozorga, iste'molchilarga yoki suv manbalariga yaqin bo'lishini qanchalik xohlamaylik uni ko'chira olmaymiz.

Yer foydalanish jarayonida yeylimaydi, eskirmaydi. Aksincha agar undan to'g'ri foydalanilsa, uning unumdorligi oshib boradi.

Yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirishning shaklidir.

Tarixiy ko'rinishlari:

- Barshchina (ishlab berish)
- Obrok (natural soliq)
- Pul solig'i.

Hozirgi paytda turli mamlakatlarda mavjud renta vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

• **Differensial renta** - yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

Differensial (lotincha so'zdan olingen bo'lib, tabaqalashgan, farq degan ma'noni anglatadi) renta o'rta va yaxshi yer uchastkalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga sarflangan xarajatlar bilan, yomon yer uchastkalarida yetishtirilgan mahsulot uchun qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi ana shu unumdorligi past yerlarda etkazilgan mahsulotlarga qilingan xarajatlar asosida shakllanadi.

Sababi, unumdor yerlar cheklangan. Aholining talabini qondirish uchun yomon yer uchastkalaridan ham foydalanishga to'g'ri keladi. Differensial renta faqat yer uchastkalarining unumdorligini turlichaligi tufayligina emas, balki ularning iste'molchilarga uzoq-yaqin joylashishi tufayli ham kelib chiqadi. Yomon yerlardan differensial renta olinmaydi.

Differensial renta o'zining kelib chiqish sharoitlarga qarab differensial renta I va differensial renta II ga bo'linadi.

Yerning tabiiy unumdorligi va iste'molchilarga nisbatan joylanishiga (sanoat markazlariga, bozorlarga va aloqa yo'llariga uzoq-yaqinligi) ko'ra farq natijasida hosil bo'lgan differensial renta, **differensial renta I** deb ataladi.

Yerga egallik qilish - tarixan tarkib topgan an'analar yoki qonuniy asosda belgilangan tartibda yerga egalik huquqining tan olinishini bildiradi.

Yerdan foydalanish huquqi - bu o'rnatalgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi.

Renta munosabatlari - qishloq xo'jaligida vujudga keltirilgan qo'shimcha sof daromadning yer egalari va undan foydalanuvchilar o'tasida taqsimlanishi va o'zlashtirilishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Yer rentasi - yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirishning shaklidir.

Differensial renta - yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

Differensial renta I - yerning tabiiy unumdorligi va iste'molchilarga nisbatan joylashuviga ko'ra farq natijasida hosil bo'lgan differensial renta.

Differensial renta II - yerga qo'shimcha kapital sarflab olingen daromaddagi farq.

Absolyut renta - qishloq xo'jaligida yerga bo'lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, hamma turdag'i yaxshi, o'tacha va yomon yerlardan olinadigan renta.

Monopol renta - alohida tabiiy iqlim sharoitiga ega bo'lgan, noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta.

Undirma sanoatda renta - foydali qazilma konlarining joylashuvi va konlarning boyligidagi farqlar natijasida vujudga keladi.

Ijara munosabatlari - mulkdan haq to'lash sharti bilan ma'lum muddat foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar.

Ijara haqi - yerdan foydalanish huquqini olishning bozor bahosi bo'lib, yerga talab va taklifga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Agrosanoat integratsiyasi - qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'tasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

Agrosanoat majmuasi - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq tarmoqlar yig'indisidir.

Bozor infratuzilmasi - barcha xo'jalik sub'ektlari o'tasida sodir bo'ladigan bozor munosabatlarining shakllanishida bevosita ishtiroy etuvchi, ularni muvofiqlashtiruvchi, maqsadli yo'naltiruvchi va ishlab chiqarishdan iste'mol qilishgacha bo'lgan jarayonlarning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan muassasalarini o'z ichiga oluvchi butun bir yaxlit majmuadir.

Agrobiznes - tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sohalardagi namoyon bo'lish shakli.

Fermer xo'jaliklari - o'ziga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Dehqon xo'jaliklari - oilaviy mayda tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi mustaqil xo'jalik sub'ekti bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iqa berilgan tomorqa yer maydonida qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtiradilar va sotadilar.

Shirkat xo'jaligi - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun pay usulida va asosan oila (jamoa) pudratida fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Agrofirmalar - muayyan turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonadir.

Agrosanoat birlashmalari - qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishining bir necha o'zaro bog'langan turlari, ularga xizmat ko'rsatuvchi va tijorat ishi bilan shug'ullanuvchi korxonalar birlashmalaridir.

Agrosanoat kombinatlari - qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va iste'molchilarga etkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarning ma'lum bir hududda birlashuvlidir.

TEST SAVOLLARI

1. Quyidagilardan qaysi biri yerga bo'lgan mulkchilik huquqini to'liq ta'minlaydi?
 - a) Yerga egalik qilish
 - b) Yerdan foydalanish
 - c) Ishlab chiqarish natijalarini tasarruf etish
 - d) O'z mulkidagi yerni tasarruf etish
 - e) Yuqoridaqilarning barchasi.

O'zbekistonda "yer - davlat mulki, umummilliyl boylik..." bo'lganligi sababli yerga bo'lgan mulkchilik, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalari alohida ajratib tahlil qilinishi lozim. O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksida "Er uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda foydalanish uchun berilishi mumkin"¹, - deb ko'rsatilgan. Demak, yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas.

Yerga egallik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan an'analar yoki qonuniy asosda belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi. Yerga egalik deganda, avvalo, yerga bo'lgan mulkchilik huquqi va uni iqtisodiy jihatdan realizatsiya qilish ko'zda tutiladi. Yerga egalikni yerga bo'lgan mulkdor (bizda davlat) amalga oshiradi.

Yerdan foydalanish huquqi - bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. Real xo'jalik hayotida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko'pincha har xil jismoniy va huquqiy shaxslar, xususan hozir bizda asosan dehqon va fermer xo'jaliklari amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham to'rt omil - yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va ishchi kuchi qatnashib, bunda yer muhim ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etadi.

2. Renta munosabatlari

Yer va undagi mavjud tabiiy boyliklar ishlab chiqarish omillaridan biri bo'lib, o'z egasiga daromad keltiradi. Bu daromadning nomi renta. Renta so'zi lotincha "redut" so'zidan olingan bo'lib, qaytarilgan, to'langan degan ma'noni bildiradi. Bunda renta yer omilining egasiga undan foydalanganlik uchun haq sifatida to'lanishi nazarda tutiladi.

Renta munosabat1ari agrar munosabatlarining negizini tashkil qilib, u qishloq xo'jaligida vujudga keltirilgan qo'shimcha sof daromadning yer egalari va undan foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlanishi va o'zlashtirilishi jarayonida vujudga keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi. – T.: "O'zbekiston", 1999, 20 – modda.

Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mulkchilikning ijara shakllarini, shartnomaviy munosabatlarga asoslangan xo'jalik yuritish tizimini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari manfaatlari ustuvorligini ta'minlash va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini ana shu maqsadga qaratish, turli tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yuritish sub'ektlari saqlab qolning holda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish muhim yo'nalish etib belgilandi.

Shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish faoliyatida yanada keng erkinlik berildi, bir vaqtning o'zida yersuv resurslaridan unumli foydalanish va shartnoma shartlarini bajarishda tomonlarning javobgarligi va mas'uliyati oshirildi. Farmonda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan bosh maqsad islohotlarni yanada jadallashtirish, mavjud tabiiy, iqtisodiy, tashkiliy va mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, pirovard natijada aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan.

Farmonda shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarining teng huquqligini saqlab qolgan fermer xo'jaliklarini ustuvor rivojlantirishga alohida urg'u berildi.

Asosiy tushunchalar

Agrar munosabatlar - agrar sektorda iqtisodiy faoliyat jarayonida yuz beradigan barcha munosabatlar eng asosiy omil bo'lgan yer bilan bog'liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan unumli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardir.

Yerning tabiiy unumdorligi - uzoq yillar davomida kishilarning hech qanday aralashuvisiz, tabiiy o'zgarishlar natijasida yerning ustki qatlamida o'simlik "oziqlanishi" mumkin bo'lgan turli moddalarning yujudga kelishi.

Yerning iqtisodiy unumdorligi - tuproq unumdorligi kishilarning tabiatga ta'siri natijasida, ya'nii tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash sun'iy yo'l bilan amalga oshirilishi.

DIFFERENSIAL RENTA Ining hosil bo'lishi

Yer uchastkasi	Ishlab chiqarish xarajatlari (so'm)	O'rtacha foyda (so'm)	Umumiyl qiymat (so'm)	Yalpi hosil (tonna)	Individual qiymat (so'm)	Bozor bahosi (so'm)	Yalpi sotilgan tushum (so'm)	Differensial renta I
Yaxshi	10000	4000	14000	30	467	700	21000	7000
O'rtacha	10000	4000	14000	25	560	700	17500	3500
Yomon	10000	4000	14000	20	700	700	14000	-

Jadvalda bir miqdorga ega bo'lgan, lekin hosildorligi turlicha, uch hil yer uchastkalari misol qilingan. Misolda bu uch hil yer uchastkalaridan olingan mahsulotning ijtimoiy qiymati bir hil, ya'nii 14000 so'mni tashkil qiladi. Yalpi hosildorlik yaxshi yer uchastkasida 30 tonna, o'rtacha yer uchastkasida - 25 va yomon yer uchastkasida 20 tonnani tashkil qiladi. Har bir uchastkadan turlicha hosil olinganligi tufayli ularda yetkazilgan mahsulotlarning individual qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yomon uchastkada yetishtirilgan mahsulot narxida sotiladi, ya'nii misolimizda bu narx 700 so'mni tashkil qiladi. Natijada yomon yer uchastkasi o'zining yakka ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va foyda olish imkoniga ega bo'ladi. O'rtacha va yaxshi yer uchastkalarida esa yomon yer uchastkasiga nisbatan 3500 va 7000 so'm miqdorida qo'shimcha daromad olinadi.

Bu olingan qo'shimcha daromad yerning tabiiy unumdorligi bilan bo'g'liq bo'lgan differensial renta Ini tashkil qiladi.

Yerning tabiiy unumdorligidan tashqari iqtisodiy unumdorligi ham mavjud. Tadbirkor yerning hosildorligini oshirish maqsadida yerga kapital qo'yadi. Qo'yilgan kapital esa turli uchastkalarda turlicha natija beradi. Yerga ketma-ket qo'shimcha kapital sarflash natijasida hosil bo'lgan iqtisodiy unumdorlik ham farq qilishi mumkin. Natijada daromadlarda ham farq bo'ladi. Yerga qo'shimcha kapital sarflab olingan daromaddagi farq **differensial renta II** deb ataladi.

DIFFERENSIAL RENTA IIning hosil bo'lishi

Yer uchastkasi	Umumiy qiymat (so'm)	Yalpi hosil (tonna)	Mahsulot birligi bahosi (so'm)	Bozor bahosi (so'm)	Yalpi sotilgan tushum (so'm)	Differensial renta II
1 - yil	12000	60	200	200	12000	-
2 - yil	15000	100	150	200	20000	5000

Misolimizda past unumli yerni unumdorligini ko'tarish maqsadida yerga qo'shimcha 3000 so'm xarajat qilindi. Sarf qilish natijasida esa qo'shimcha 5000 so'm daromad olindi. Bu daromad differensial renta II ni tashkil qiladi.

▪ **Absolyut renta** - qishloq xo'jaligida yerga bo'lган xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, hamma turdag'i: yaxshi, o'rtacha va yomon yerlardan olinadigan renta.

Ma'lumki, yerga bo'lган monopol egalik natijasida eng sifati past yerlar ham bepul ijara ga berilmaydi. Yer uchastkalarining sifati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yer mulk bo'lганligi uchun uning egalari absolyut renta oladi. Absolyut yer rentasi eng unumdor, o'rtacha unumdor va unumdorligi past bo'lган yerlardan ham olinadi. Barcha uchastkalardan olinadigan renta miqdori teng bo'ladi. Sifatlari yerlardan undiriladigan absolyut renta, umuman olganda, renta miqdoridan kam bo'ladi.

Shuningdek, yer tanqisligi sharoitida uning mulk bo'lishi va band etilishi undan olinadigan mahsulotlarga talabning ortib borishi natijasida absolyut renta olish imkonii tug'iladi. Talab oshgan sayin yomon, hatto, eng o'ta yomon yerlardan ham foydalaniлади. Sifatsiz yerlardan olingan mahsulot narxi sarflangan xarajatni qoplashi kerak. Chunki uning tarkibida tadbirkorning normal foydasi va renta ham bo'ladi. Ishlab chiqarilgan mahsulot qimmatga tushsa-da, bozor shu mahsulotni ko'taradi. Negaki, u bozor ehtiyojini qondiradi. Sifati past yerdan olingan mahsulotning odatdagidan yuqori narxda sotilishi absolyut rentani hosil qiladi, binobarin, yer egasi uni o'ziga o'zlashtiradi.

Bunday yer uchastkalarining egalari absolyut renta bilan bir qatorda differensial renta ham oladilar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida soliq tizimi takomillashtirilib, 1999 yil 1 yanvardan boshlab, uning mavjud bir nechta turlari o'rniga yagona yer solig'i joriy etildi. Bu tadbir MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib qo'llanila boshlanganligi va hozirgacha amaldaligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Agrar islohotlarning uchinchi bosqichi 2000 yildan boshlandi. Bu bosqich:

- qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilar haq-huquqlarini himoya qilish ustuvorligi;
- tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligini yanada kengaytirish va davlat buyurtmasi bo'yicha yetishtirilayotgan mahsulotlarga baho belgilashda dunyo bozori narxlariga mos keluvchi tizimni shakllantirish;
- shirkat xo'jaliklarini, birinchi navbatda past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarни fermer xo'jaliklariga aylantirish asosida qayta tashkil etish mexanizmi joriy etilishi;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi zamonaliviy infratuzilma tizimining barpo etilishi bilan xarakterlanadi.

Xizmat ko'rsatish sohalari ob'ektlarini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida tashkil etish boshlandi. Ular birinchi navbatda yangi fermer xo'jaliklari tuzilayotgan hududlarda barpo etilmoqda. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi o'tish davrining murakkab bosqichlarida o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajara oldi.

Q'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdag'i "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'naliishlari to'g'risida"gi Farmoni qishloq xo'jaligida tarixiy ahamiyatga ega hujjat bo'lib, tarmoq rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi.

Farmon ayrim idora va vazirliklarning shirkat hamda fermer xo'jaliklari erkin faoliyatiga to'g'anoq bo'lib kelgan buyruqbozlik va taqsimot funksiyalariga chek qo'ydi.

Ushbu hujjat qishloq xo'jaligida mana shunday kamchilliklarni bartaraf etish yo'llarini hamda yaqin kelajakda agrar sohani rivojlantirishdagi ustuvor yo'naliishdagi vazifalarni aniq belgilab berdi.

- Yer maydonlarining shahar markazlari, bozorlar, yo'llar va suv manbalariga joylashishining uzoq-yaqinligi;
- Yerlardan sanoat usulida, qurilish va boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- Yerlarda ekin turlarini joylashtirish imkoniyatlari darajasi.

Shunday qilib, renta o'z turlaridan qat'iy nazar, u to'lovchilar uchun xarajat, yer egalari uchun esa daromad hisoblanadi. U, bir tomonidan, doimiy xarajatlarni shakllantirsa, ikkinchi jihatdan, qat'iy belgilangan daromadni tashkil etadi.

Mulkdan haq to'lash sharti bilan ma'lum muddat foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar ijara munosabatlari deb ataladi.

Ijara haqi - yerdan foydalanish huquqini olishning bozor bahosi bo'lib, yerga talab va taklifga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ijara haqining iqtisodiy asosi bu yer rentasi. Shu bilan birga miqdoran rentadan farq qiladi. Birinchidan, barcha renta ijara haqiga kirmsaligi mumkin, masalan, differensial renta II. Ikkinchidan, ijara haqi renta bo'limgan to'lovlarni, masalan, yer uchastkadagi mavjud ombor, inshoot va boshqalar uchun haqnini ham o'z ichiga oladi.

$$IH = R + r + A$$

IH – ijara haqi;

R – yer rentasi;

r - yerga sarflangan kapital uchun foiz to'lovlari;

A – asosiy kapitallar amortizatsiyasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijaraaga berilmay sotiladi va sotib olinadi. Yerga xaridor uni yer keltiradigan daromad uchun sotib oladi. Ya'ni noaniq uzoq vaqt davomida doimo barqaror ravishda daromad olishga bo'lgan huquq sotib olinadi.

Sotiladigan yer uchastkalarning bahosi bevosita u keltiradigan ijara haqi bilan bog'liq. Ssuda protsentiga ham bog'liq.

Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yana bir turlaridir. Agrosanoat birlashmalari bir turdag'i mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarni birlashtiradi. Masalan, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotni qayta ishlovchi sex va zavodlar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi.

Agrosanoat kombinatlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va iste'molchiga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarning ma'lum bir hududida birlashuvdir. Agrobiznes turiga ko'ngilli va paychilik mablag'lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni ham kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligida davlat korxonalari, jamoa xo'jaliklari va shirkatlari, turli xil mukchilik asosida tashkil qilingan ko'shma korxonalar ham agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

5. O'zbekistonda agrar islohotlar va ularni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov so'zlagan nutqida iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga to'xtalib, "Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash bundan buyon ham g'oyat muhim masala bo'lib qoladi,"² - deb ta'kidladi va mavjud muammolarning yechimini topishni XXI asr boshidagi dolzarb masala qilib qo'ydi.

O'zbekistonda agrar islohotlarning negizi yerga bo'lgan mukchilik masalasidir. Respublika Konstitutsiyasida yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijaraaga shartlari bilan topshirish mumkinligi ta'qidlangan.

² I.Karimov. Xalqimiz farovonligining barqaror o'sishini ta'minlash – ustuvor vazifa. "Xalq so'zi" ro'znomasi, 12 yanvar 2001 y.

Islohotlarning ilk bosqichida mamlakat qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki asoslari yaratiladi. Bunda ustuvor yo'nalish qilib shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish belgilangan edi. Ular ixtiyoridagi yer maydonlari 1989 – 1995 yillarda ikki barobarga ko'paydi.

Natijada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzlusiz ta'minlashda va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda barqarorlikka erishildi.

Tarmoqda mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga va xususiylashtirishga muhim ahamiyat berildi. Jumladan, 1066 ta davlat xo'jaliklari (sovxozi) tugatilib, ular negizida jamoa xo'jaliklari tashkil etildi. Chorvachilik fermalari, bog' va tokzorlar, kichik yer maydonlari hamda issiqxonalar xususiylashtirildi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida "Yer kodeksi", "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlar va tegishli Hukumat qarorlari qabul qilinib, me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi.

Bunday huquqiy bazaning yaratilishi agrar islohotlarni chuqurlashtirishga zamin yaratdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning xalqaro andozalar va xalqimiz mentalitetiga mos keladigan - shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklaridan iborat modeli tanlandi.

Shirkat xo'jaliklarida ishlab chiqarish oila pudrati asosida tashkil etildi, pudratchilaring o'z mehnati natijasidan manfaatdorligini oshiradigan va mas'uliyatini ta'minlaydigan tizim yaratildi. Qishloq xo'jalida tovar etishtiruvchilar faoliyatini erkinlashtirish bosqichma-bosqich olib borildi, xalqimiz uchun strategic ahamiyatga ega bo'lgan paxta va dondan boshqa barcha mahsulotlarga davlat buyurtmasi bekor qilindi.

Yer munosabatlarda yangi tamoyillar joriy qilindi. Shirkat xo'jaliklarida ekin maydonlarini, bog' va tokzorlarni oila pudratchilariga tanlov asosida uzoq muddatga ijara berish amalgam oshirila boshlandi. Yerni fermer xo'jaliklariga 50 yilgacha va dehqon xo'jaliklariga umrbod foydalananishga berish tizimi yaratildi.

Tarixan shunday bo'lib qolganki, ko'pgina mamlakatlarda jumladan, bizning mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligidagi kapitalning uzviy tuzilishi sanoatdagidan pastdir. Shuning uchun qishloq xo'jaligida yaratilgan tovarlarning bozor qiymati ishlab chiqarishning ijtimoiy qiymatidagi qo'shimcha qiymat miqdori jamiyatda shakllangan o'rtaча foydadan ortiq bo'ladi. Qishloq xo'jalik tovarlарining bozor bahosi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish bahosi o'rtasidagi bu tafovut absolyut renta manbayi bo'lib xizmat qiladi.

• **Monopol renta** - alohida tabiiy iqlim sharoitiga ega bo'lgan, noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta. Bunday renta noyob mahsulotlar (choy, kofe, sitrus o'simliklar mevasi, maxsus qizil yog'och va boshq.) yetishtirilishidan paydo bo'ladi. Noyob mahsulotlarning taklifi oz bo'lsada, talabi katta. Ushbu mahsulotlarning taklifi o'zgaruvchan bo'lmaydi, chunki ular narxining o'zgarishi, ularni oz yoki ko'p ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydi. Shu sababli kamyob mahsulotlar monopol narxda sotiladi, bu narx ishlab chiqarishga ketgan xarajatlardan ancha yuqori turadi, natijada yer egalari monopol renta olishga muvaffiq bo'ladilar. Bunday renta sharoiti noyob yerlar uchun, boshqalariga qaraganda, yuqori ijara haqi belgilanishida ifoda etiladi.

• **Undirma sanoatda renta** - foydali qazilma konlarining joylashishi va ularning boyligidagi farqlar natijasida vujudga keladi.

Yer osti qatlamida foydali qazilma boyliklarning joylashganligi jihatidan ham, konning boyligi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Xuddi qishloq xo'jaligiga o'xshab, o'rta, yaxshi va o'ta yaxshi konlarda ish yurituvchi korxonalar mavjud.

Qazilma boyliklarni yerdan ajratib bo'lmaydi, uning ustidagi boylik yer bilan birgalikda mulk hisoblanadi. Mulk egasi undan o'ziga foydalansa qo'shimcha foya oladi. Konni ijara qila olgan sub'ekt mulk egasiga undan foydalanganligi uchun renta to'laydi. Undirma sanoatdagi renta tuproq hosildorligiga emas, balki yer qa'ridagi qazilma boyliklarning oz ko'pligi, sifati, qazib olish xarajatlariga bog'liq bo'ladi.

Renta miqdoriga ta'sir etuvchi omillar:

- Yerning unumidorligi;
- Foydalishda bo'lgan yerkarda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarning bozor narxi;
- Birgalikda foydalananidan boshqa resurslarning narxlari va unumidorligi;


Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ulami tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq tarmoqlar yig'indisidir.

Agrosanoat majmuasining asosiy vazifasi aholining oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste'moli tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq va samaraliroq qondirishdan iborat.

Mamlakatimiz agrosanoat majmuasi agrosanoat integratsiyasi va kooperatsiyasining mahsuli bo'lib, o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab yagona tizim sifatida shakllana boshladi.

Agrosanoat majmuasining pirovard mahsulotini yaratishda ishlab chiqarish va muomala sohasining turli bosqichlarida bevosita va bilvosita 70dan ortiq tarmoqlar ishtirok etadi. Agrosanoat majmuasi tarkibiga texnologik va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan oxirgi iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonda bevosita ishtirok etuvchi tarmoqlar kiradi. Ushbu jarayonda ishtirok etayotgan tarmoqlar o'rtasidagi nisbat agrosanoat majmuasining tarmoq tarkibini tashkil etadi.

Agrosanoat majmuasi 4ta sohani o'z ichiga oladi.



Birinchi soha sanoatning agrosanoat majmuasini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish va texnik xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlaridan iborat. Bu sohaga agrosanoat majmuasi uchun mashina, traktor, kombayn, stanoklar, ishchi mashinalar, qishloq xo'jaligi texnikalari uchun ehtiyoj qismlar, yoqilg'i - moylash materiallari yetkazib beruvchi, mineral o'g'it va ximikatlar, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi vositalar ishlab

Chunki iqtisodiy jihatdan erkin bo'lgan fuqaro, haqiqiy mulkdorgina o'z mol-mulkini samarali tasarruf etishdan, o'z boyligini ko'paytirishdan manfaatdor bo'libgina qolmay, balki butun mamlakatni, boyitishga ham qodir bo'ladi.³

Fermer xo'jaliklarini tashkil etish tanlov asosida, oshkoraliyki ta'minlagan holda amalga oshirilmoqda. Fermer xo'jaliklari mamlakatimiz sharoitida ham xo'jalik yuritishning eng samarali shakli ekanligini qisqa muddat ichida isbotlay oldi. Buni 2006 yilning boshida tugatilgan shirkat xo'jaligi negizida tashkil etilgan 125,7 ming fermer xo'jaliklarining ilk natijalari yaqqol ko'rsatib turibdi. Ularning soni o'tgan yilga nisbatan 21,7 mingga ko'paygan. Fermer xo'jaliklarning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi 18,6% dan 24,5% ga oshdi.

Yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklarida birinchi yilning o'zidayoq paxtaning hosildorligi 6,4 sentnerga, donning hosildorligi 5,3 sentnerga oshdi. Rentabellik darajasi paxtada - 12,8 foizdan 18,9 foizga, donchilikda - 1,9 foizdan 19,8 foizga yetdi. Fermerlarda mahsulot birligiga ketadigan moddiy resurslar sarfi sezilarli darajada kamaydi. Moddiy xarajatlar har hektariga mineral o'g'it bo'yicha 46 kilogramm, yonilg'i-moylash materiallari bo'yicha 67 kilogrammga kam bo'ldi. Ularda mahsulot miqdorining ko'payishi asosan ekinlar hosildorligi va chorva mahsuldarligining oshishi evaziga yuz bermoqda.

Ilk bora yuqorida qayd etilgan o'sish sur'atlariga ob-havoning qulay kelishi natijasidagina emas, balki zarar bilan ishlayotgan shirkat xo'jaliklari o'nida fermer xo'jaliklarini tashkil etish, korxonalarini kreditlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish, zarur miqdordagi mineral o'g'itlar bilan o'z vaqtida ta'minlash va shartnomalar munosabatlарini takomillashtirish evaziga erishildi.

Umumiy ekin maydonlari tarkibida fermer xo'jaliklarining ulushi 59,3%, alohida qishloq xo'jalik ekinlari bo'yicha mazkur ko'rsatkich quyidagicha: donli ekinlar - 57,7%, texnik ekinlar - 68,1, ozuqa ekinlari - 46,3%.

³ I.A.Karimov. Mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanish tarraqiyot omili. T.: "O'zbekiston", 2004.

Ammo kartoshka ekiladigan (17,7%) va meva ko'chatlariga ajratilgan maydonlar (26,4%) ulushi katta emas. Umuman olganda so'nggi yillarda fermer xo'jaliklarining ekin maydonlarining kengayish tendensiyasi kuzatilmogda. Fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 30,0 ga.

Fermer xo'jaliklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Yillar		
	2003	2004	2005
Fermer xo'jaliklari soni	87552	103921	125668
Ularga biriktirilgan yer maydoni, ming ga	2148,1	2935,4	3775,3
Ish bilan band bo'lganlar soni, ming kishi	603,0	765,3	954,2
Yalpi q.x. mahsulotlarida ulushi, %	14,8	20,4	24,5
- dehqonchilik	13,8	19,3	41,4
- chorvachilik	1,0	1,1	2,5
Mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi, %	140,1	131,2	131,7
- dehqonchilik	141,9	142,9	133,6
- chorvachilik	123,8	118,0	103,0
Bitta fermerga to'g'ri keladigan maydon, ga	24,5	28,2	30,0

Respublikada fermer xo'jaliklari samarali ishlashi uchun zarur xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma - agrofirmalar, mashina-traktor saroylari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar tizimi shakllandi.

Agrobiznes turlaridan biri agrofirmalardir. Ular ma'lum turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonalardir.

Agrofirmalar ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga xos resurslarni ishlatib, iste'molga tayyor bo'lgan mahsulot yaratadi. Mazkur turdag'i korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, chunonchi oilaviy xo'jalik asosida ham tashkil topib, kichik zavodlar bilan birikishi mumkin.

Mablag' egasi o'z pulini yer sotib olishga emas, balki bankka qo'yib, barqaror prosent olishi mumkin. Ana shuning uchun ssuda prosenti yerning bahosini aniqlashda foydalaniladi.

$$P_n = \frac{R}{r} * 100$$

P_n – yerning bahosi;

R – renta hajmi;

r – foiz stavkasi.

Yer narxini aniqlashning bu usuli nazariy ahamiyatga ega. Amalda yer narxi, yer uchastkasiga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillarga bog'liq. Jumladan, yerga narxning o'sishini, unga noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun foydalanishga talabning o'sishi bilan tushuntirishilishi mumkin. Inflyatsiya va asosan giperinflyatsiya sharoitida yerga talab keskin o'sadi, bu tegishli ravishda yer narxining o'sishiga olib keladi.

Lekin umuman olganda yerning narxi uzluksiz o'sib boradi, sababi yerga talab o'sib boradi, taklif esa o'zgarmaydi.

3. Agrosanoat integratsiyasi.

Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi

Bozor sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi barcha bo'g'inlar bozor talabi doirasidagi tovarlarni iste'molchiga taklif etish orqali o'z xarajatlarini qoplashi va daromad ko'rishi lozim. Bunda agrosanoat integratsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Agrosanoat integratsiyasida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklar birlashgan bo'lib, ularning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi integratsiya doirasidagi bo'g'inlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga bog'liq. Qishloq xo'jaligi va unga tutash tarmoqlarning uzviy birikishi jarayoni agrosanoat integratsiyasida namoyon bo'ladi. Natijada turli tarmoqlarning o'zaro hamkorligi oqibati sifatida agrosanoat majmuasi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi yalpi qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarishda xo'jalik yuritish ayrim shakllarining salmog'i (%da)

	Yillar					
	2000	2001	2002	2003	2004	2005
Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti	100	100	100	100	100	100
Qishloq xo'jalik korxonalarini	27,8	26,8	25,6	23,5	19,9	15,3
Fermer xo'jaliklari	5,5	6,9	10,0	14,1	20,4	24,5
Dehqon xo'jaliklari	66,7	66,3	64,1	62,4	59,7	60,2
DEHQONCHILIK	100	100	100	100	100	100
Qishloq xo'jalik korxonalarini	46,4	42,6	42,6	37,8	30,9	23,1
Fermer xo'jaliklari	9,7	11,7	17,8	25,3	35,9	41,4
Dehqon xo'jaliklari	43,9	45,7	39,6	36,9	33,2	35,5
CHORVACHILIK	100	100	100	100	100	100
Qishloq xo'jalik korxonalarini	9,0	9,3	8,7	8,1	7,2	5,0
Fermer xo'jaliklari	1,3	1,6	2,0	2,2	2,3	2,5
Dehqon xo'jaliklari	89,7	89,1	89,3	89,7	90,5	92,5

Fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil qilish, rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solish Q'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi Qonunlariga (yangi tahriri, 2004 yil 26 avgust) hamda qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan boshqa huquqiy bitimlarga va hukumat qarorlariga asoslanadi.

Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mulkchilikning ijara shakllarini, shartnomaviy munosabatlarga asoslangan xo'jalik yuritish tizimini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari manfaatlari ustuvorligini ta'minlash va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini ana shu maqsadga qaratish, turli tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yuritish sub'ektlari saqlab qolning holda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish muhim yo'nalish etib belgilandi.

"Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi sifatida faoliyat ko'rsatishlari lozim.

chiqaruvchi, chorvachilik uchun omixta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollari uchun dori-darmon ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan korxonalar va

boshqalar kiradi.

Agrosanoat majmuasining birinchi sohasiga kiruvchi tarmoqlar ishlab chiqarish jarayonini resurslar bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish va qayta ishlash sanoatida texnika taraqqiyoti uchun asos yaratish, majmuuning barcha bo'g'inlarini samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit barpo etishga imkon yaratadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va umuman pirovard mahsulot ishlab chiqarishning bir maromda kechishi, uzluksizligi va ommaviyligi ushbu tarmoqlar faoliyatiga bog'liq.

- **Ikkinci sohaga** bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, birinchi navbatda, shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari kiradi. Bundan tashqari agrosanoat majmuasining ikkinchi sohasiga, pillachilik, asalarichilik, qisman o'rmonchilik (tabiiy oziq-ovqat va dorivor o'simliklar yetishtirish) hamda baliqchilik kiradi. Bu soha agrosanoat majmuasining asosini, yadrosini tashkil etadi. Majmuuning boshqa sohasiga kiruvchi tarmoqlar asosan shu soha mahsulotlari asosida faoliyat yuritadilar yoki ushbu sohaga xizmat ko'rsatadilar.

- Agrosanoat majmuasining **uchinchchi sohasi** qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchiga yetkazib beruvchi tarmoqlar va korxonalarini o'z ichiga qamrab oladi. Paxta, go'sht va sut zavodlari, meva sharbatlari chiqaruvchi zavodlar, yog'-moy kombinatlari, jun, kanop, pillani qayta ishlash korxonalarini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yoki ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni saqlaydigan korxonalar, ularni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar shu sohaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

- Tarmoq va korxonalar moddiy ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etuvchi, uni tashkil etishda bilvosita ishtiroy etuvchi shunday muassasalar mayjudki, ular mohiyatan **infratuzilma** tushunchasi va atamasi tarzida talqin etiladi hamda ishlab chiqarish shart - sharoitlarini yaratuvchi tarmoqlar majmuidan

iborat bo'ladi. Bular yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, mahsulotlarni saqlash tizimi, ombor va tara xo'jaligi va boshqalar. Infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirmasdan turib, agrosanoat majmuasining barcha sohalarida samaradorlikni oshirishga erishib bo'lmaydi va uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularga ajratilgan kapital quyilmalar nafaqat bevosita egasiga, balki ASMning boshqa sohalaridagi korxonalarning daromadlarini ko'paytirishga ham imkoniyat yaratib beradi.



Infratuzilma iqtisodiy-huquqiy, savdo-vositachilik, moliyakredit, tashqi-iqtisodiy va axborot xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etib, qishloq xo'jaligi sub'ektlarining iqtisodiyotdagi barcha sub'ektlar bilan moddiy va moliyaviy resurslar harakatini bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

4. Agrobiznes va uning turlari

Tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jalik sohalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Agrosanoat majmuasida iqtisodiy munosabatlarni agrobiznes asosida rivojlantirish zarur. Agrobiznes tizimida mahsulot sotuvchi asosiy yoki yetakchi sub'ekt bo'lishi lozim. Agrosanoat majmuasida agrobiznesni yo'nga qo'yish ishlab chiqarish, qayta ishslash, saqlash va sotish bo'g'inlarini o'z ichiga oluvchi yaxlit majmua rivoj topishini, tarmoqqa investitsiya jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Agrobiznes qishloq xo'jalik mahsulotlарини yetishtirish, ularни qayta ishslash va iste'molchiga yetkazib berishdagi oraliq bo'g'in bo'lib,

tayyor mahsulotning bozor talablariga moslashish vazifasini hal etadi va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo'g'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir. Chunki ular bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bu xo'jaliklar o'z yerida yoki ijara olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanish ham mumkin.

Fermer xo'jaliklari –

o'ziga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Dehqon xo'jaliklari –

oilaviy mayda tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi mustaqil xo'jalik sub'ekti bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnat asosida meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer maydonida qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtiradilar va sotadilar.

Shirkat xo'jaligi –

yirik tovar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun pay usulida va asosan oila (jamoa) pudratida fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston. 1995.
2. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti - to'kin xayot manbai. T.: O'zbekiston. 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. - T.: O'zbekiston. 1999.
7. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida" gi qonuni.
8. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2003 yil 24 mart.
9. A.O'lmasov, M.Sharifxojaev. Iqtisodiyot nazariyasi. T. 1995 y.
10. A.O'lmasov, A. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Sharq. 2006.
13. D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi. I-qism. T. 2002.
14. D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi. II-qism. T. 2003.
15. N. Beknozov. Iqtisodiyot nazariyasi. //Darslik. - T. 2005 y.
14. U.Umarov. Iqtisodiyot nazariyasi. //O'quv qo'llanma. T.: Meros. 2004.
15. Sh. Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'raev Iqtisodiyot nazariyasi. T. 2002.
16. Sh. Shodmonov, U.V.Gafurov. Iqtisodiyot nazariyasi. T. 2005 y.
17. Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический обзор за 2005 год. Т.:Узбекистан. 2006.

Bosishga ruxsat berildi 25.11.06. Bichimi (60/84) 1/16. Shartli bosma tabog'i 2,0.
Nashriyot bosma tabog'i 2,0. Adadi 300. Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Matbuot qo'mitasining 21-0941 sonli
guvohnomasi asosida ToshDAU tahririyat - nashriyot bo'limida ehop etildi.